



QO‘QON XONLIGIDA HARBIY ISH

Farg‘ona shahar 1-sonli texnikumi tarix fani o‘qituvchisi

Davletova Shirmonoy

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan Qo‘qon xonligining (1709–1876) harbiy tizimi keng va tahliliy tarzda o‘rganilgan. Maqolada xonlikning harbiy tuzilmasi, qo‘shin tarkibi, harbiy mansablar ierarxiyasi, qurolsozlik va artilleriya sohasi, chegarani himoya qiluvchi qal‘alar tizimi, shuningdek xonlikda olib borilgan harbiy yurishlar va Rossiya imperiyasi bilan bo‘lgan harbiy to‘qnashuvlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, harbiy tizim, mingboshi, sarboz, qo‘shin, qurolsozlik, zambarak, qal‘a, harbiy mansablar, Rossiya bosqini, Farg‘ona vodiysi, harbiy islohot.

O‘rta Osiyo tarixi – bu davlatlar, sulolalar va xalqlarning ko‘p asrlik kurashi va hamkorligi tarixidir. XVIII–XIX asrlar O‘rta Osiyosi uchun Qo‘qon xonligi mintaqaning eng muhim siyosiy va harbiy kuchlaridan biriga aylangan. 1709 yilda o‘zbeklarning minglar urug‘idan bo‘lgan Shohruxbiy tomonidan asos solingan bu davlat, XIX asrning birinchi yarmida o‘z hududlari va ta‘sir doirasini Farg‘ona vodiysidan Toshkent, Chimkent, Turkiston shaharlari va hatto Qashqar yo‘nalishlarigacha kengaytirdi.

Qo‘qon xonligida qo‘shin tuzish va harbiy faoliyat Chingizxon va Amir Temur harbiy tizimining merosiga asoslangan bo‘lgan. Asosiy harbiy bo‘linmalar o‘n, ellik, yuz va ming kishilik dastalardan tashkil topgan; bu tizim Movarounnahr tarixida uzoq davom etib kelgan an‘ana hisoblangan. Qo‘qon xonligi harbiy salohiyati jihatidan Buxoro va Xiva davlatlari bilan raqobatlasha oladigan darajaga yetdi. Xonlikda muntazam qo‘shin soni 1863–1864 yillarga kelganda 40 ming kishiga yetkazildi.



Amirlashkar – amir ul-umarodan keyingi mansab. Qo‘qon xonligida mingboshi harbiy unvonining vazifalari va darajasi amirlashkarlikka teng bo‘lgan. Harbiy yurish davrida barcha qo‘shinlarga bevosita qo‘mondonlik qiluvchi bu mansab egasi urush vaqtida amir ul-umaroning o‘ng qo‘li hisoblangan.

Mingboshi – mo‘g‘ullar istilosi davridan mavjud (ular da "timchi" deb atalgan) bo‘lgan bu unvon ma'mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan mulkning hokimi edi. Harbiy yurishlar vaqtida qo‘shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olgan. Bu unvonning egasi vazirlikka ham da'vogar bo‘lgan. Qo‘qon xonligida mingboshi amali SHERALIXON davrida (1842–1844) yuqori darajadagi vazifaga aylanib ketdi. Mashhur mingboshilar qatorida Muhammad Yusuf, Shodiboy, Musulmonquli qipchoq, Muhammad Diyor, Mullo Xolbek, Mirzo Ahmad, Niyoz Muhammad, Alimquli va boshqalar tilga olinadi.

Botirboshi – botir va bahodirlar boshlig‘i. Besh yuz nafardan ko‘p dasta yoki to‘pga boshchilik qilgan. Viloyatlarda botirboshi harbiy va qo‘shin ishlariga mas'ul edi. Botirboshi ba'zan qurilish hamda sug‘orish (ariq qazish) ishlariga ham boshchilik qilgan.

Qushbegi – harbiy qo‘shinning boshlig‘i. Bu mansab yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshilik unvonini olishga da'vogar bo‘lgan. Qushbegi mansabiga ko‘tarilgan zot alohida viloyatga ham hokim bo‘lishi mumkin bo‘lgan. Qushbegi mansabi harbiy va ma'muriy vakolatlarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Qal'abon (Kutvol) – Qo‘qon xonligining chegaralarida joylashgan qal'a va istehkomlarning hokimi bo‘lib, shu tumanlarning harbiy-ma'muriy, xiroj va boj olish ishlariga, chegarani muhofaza qilish ishlariga javob bergan. Harbiy maqsadga ko‘ra, qal'abon vazifasiga dodxohdan qushbegigacha bo‘lgan shaxslar tayinlangan.

Qo‘rboshi – qo‘rxona, ya'ni aslahaxona boshlig‘i. Bu mansab egasi xon va mingboshiga itoat etgan. Qo‘rboshi qo‘rxona, miltiqxona, to‘pxonalarga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib to tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan tarqatib berishga mas'ul bo‘lgan.



To'pchiboshi – to'pchilar, zambarakchilar guruhi boshlig'i. Bu mansab artilleriya bo'linmalarini boshqargan va xonlik qo'shinida muhim o'rin egallagan.

Ponsadboshi – besh yuz nafar askardan iborat guruh rahbari. Yuzboshi – yuz kishilik harbiy dasta boshlig'i. Panjohboshi (ellikboshi) – ellik nafarlik harbiy to'bning sardori. Dahboshi (o'nboshi) – o'n nafarlik jangovar dastaning sardori. Qorovulbegi – soqchilar va qorovullarning boshlig'i.

Harbiylar qatoriga askar, sarboz, nukar (navkar), sipohi, mergan, mahram (mulozim ma'nosida), botur, to'pchi, zanbarchi (to'pchi va jazoilchining yordamchisi), qo'rchi, qorovul (soqchi) kirgan. Qo'shinda yana nog'orachilar, karnaychi, surnaychi, dafchi (katta nog'oralarni chaluvchi), tug'chi (bayroqdor) ham xizmat qilganlar.

1853 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, xonlik sha har va qal'alaridagi garnizon 11 620 kishini va zambaraklar soni 60–90 tani tashkil etgan. Toshkentda 2000 kishilik garnizon va 20 ta zambarak joylashtirilgan edi. Turkiston shahrida 600 kishilik qo'shin va 2–4 tagacha zambarak, Yangiqo'rg'on qal'asida 60 kishi va 1–3 tagacha zambarak, Qirovchi qal'asida 400 kishi va 1–3 tagacha zambarak, Shoydon qal'asida 50 ta askar va 1–3 tagacha zambarak, Chinozda 100 ta askar va 1–3 tagacha zambarak, Chimkentda 250 ta askar va 2–4 tagacha zambarak, Avliyoota qal'asida 600 kishi va 2–4 tagacha zambarak, Isfarada 200 kishi va 1–3 tagacha zambarak joylashtirilgan bo'lgan.

Qo'qon xonligi Toshkentda ham katta strategik ahamiyatga ega qal'a saqlagan. Xonlik 1867 yilga qadar Toshkent, Chimkent, Turkiston kabi yirik shaharlarni o'z nazoratida tutgan va bu hududlarda harbiy garnizonlar saqlagan. Qo'qon xonligi o'z tarixida ko'plab harbiy yurishlar olib bordi. Abdurahimbiy davrida Buxoro xonligiga harbiy yurish qilinib, Samarqand egallanadi (1732). Abdulkarimbiy davrida (1746 yil) qalmoqlar Farg'ona vodiysiga hujum qilib, O'sh, Andijon, Marg'ilon shaharlarini egallab, Qo'qonni qamal qilgan. Qo'qonliklarga



yordamga kelgan O‘ratepa hokimi Fozilbiy qo‘shinlari bilan birgalikda qalmoqlar Farg‘ona vodiysidan quvib chiqarilgan.

Olimxon (1798–1810) hukmronligi davrida Qo‘qonning siyosiy mavqei yanada kuchaygan, harbiy islohot o‘tkazilgan, Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent va Sayram tobe etildi. 1805 yil davlat rasman Qo‘qon xonligi deb e‘lon qilinib, Olimbek "xon" unvonini oldi.

Umarxon davrida (1810–1822) xonlik hokimiyatini mustahkamlash va kengaytirish choralari ko‘rildi. 1815 yil Buxoro xonligiga qarashli Turkiston, 1817 yil esa O‘ratepa bosib olindi. Olimxon o‘z faoliyati davomida harbiy yurishlar, qal'a qurilishi va qo‘shin tashkillanishiga alohida e'tibor qaratdi.

Sheralixon (1842–1845) davrida qipchoqlardan Musulmonquli mingboshi qilib tayinlangan. Musulmonquli, asosan, harbiy ishlar bilan shug‘ullangan va xon qo‘shinlarining tarkibini ko‘proq qipchoq yigitlari bilan to‘ldirgan. Bu esa xonlikda qipchoqlarning harbiy sohada yetakchi mavqeyega chiqishiga olib kelgan.

Xulosa Qo‘qon xonligida harbiy ish o‘rta asrlar Movarounnahr davlatchiligining harbiy an‘analari asosida shakllangan bo‘lib, xonlik kengayib borgan sari harbiy tizim ham takomillashib borgan. Harbiy mansablar ierarxiyasi – amir ul-umarodan oddiy askar va qorovulgacha – aniq tartibga solingan va har bir lavozimdagi harbiy xizmatchi o‘z vazifalari, haq-huquqlari va mas‘uliyati bilan belgilangan.

Qo‘shin tarkibi jihatidan Qo‘qon xonligi XIX asrning o‘rtalariga kelib 40 000 kishilik muntazam qo‘shinga ega bo‘ldi. Qurolsozlik, artilleriya va qal'a tizimi rivojlanib, Buxoro va Xiva xonliklariga raqib bo‘la oladigan darajaga etdi. Chegara qal'alari tizimi keng hududlarda harbiy nazoratni ta'minlash imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vohid Sh. Qo‘qon xonligidagi unvon va mansablar. – Xurshid Davron kutubxonasi. – <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shodmon-vohid-qoqon-xonligidagi-unvon-va-mansablar.html>



2. Qo‘qon xonligi qurolsozligi tarixidan. – CARJIS, Volume 2, Issue 12, December 2022. – <https://cyberleninka.ru/article/n/qo-qon-xonligi-qurolsozligi-tarixidan>
3. Xorazmiy.uz. Qo‘qon xonligining tugatilishi. Xudoyorxon va Rossiya tajovuziga qarshi xalq harakatlari. – <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/274>
4. Bobobekov H. Qo‘qon xonligining qisqacha tarixi. – "Turon tarixi" jurnali to‘plami, N-2. – Toshkent: Fan, 2008.